


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI XORIJIY TILLAR  
FAKULTETI INGLLIZ TILI AMALIY  
KURSI KAFEDRASI**



**“ Xorijiy tillarni o‘qitishning  
zamonaviy tendensiyalari  
masalalari (muammo va  
yechimlar)”  
Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy  
konferensiya  
TO‘PLAMI**

**JIZZAX-2023**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI XORIJIY TILLAR  
FAKULTETI INGLIZ TILI AMALIY KURSI KAFEDRASI  
XORIJIY TILLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI  
MASALALARI (MUAMMO VA YECHIMLAR)  
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2023-yil, 4-oktyabr**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF  
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
JIZZAK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY, FACULTY OF FOREIGN  
LANGUAGES, DEPARTMENT OF ENGLISH LANGUAGE PRACTICAL  
COURSE  
ISSUES OF MODERN TRENDS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES  
(PROBLEMS AND SOLUTIONS)  
international scientific-practical conference  
October 4,2023**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ, ФАКУЛЬТЕТ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ, КАФЕДРА  
ПРАКТИЧЕСКИЙ КУРС АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА,  
"ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННЫХ ТЕНДЕНЦИЙ В ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ " (ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ)  
международных научных и научно-практическая конференция  
4-октября, 2023г**

**“XORIJIY TILLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI  
MASALALARI (MUAMMO VA YECHIMLAR)”**  
*mavzusidagi xalqaro ilmiy –amaliy konferensiyasi materiallari*

**Ma’sul muharrir:**

**Mamatov Abdugafur Eshonqulovich** - f.f.d.professor

**Tahririyat a’zolari:**

S.B.Xamidova, O.A.Xolmurodova, G.Z.Ganiyeva, X.B.G‘aniyeva, G.B.Gafurova

**Taqrizchi:**

**Otajonova Dildora Baxtiyorovna** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

**Texnik sahifalovchilar**

S.B.Xamidova, Z.A.Alibekova, O.A.Xolmurodova

118. **Sh.O'.Atamurodov.** *BOSHLANG 'Ich SINF O'QUVChILARIGA MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN TUYG'ULARNI JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA SINGDIRISH*.....550
119. **Turaxonova Badia.** *RHETORICS OF SPEECH IN DIFFERENT FORMS OF TEXTS*.....554
120. **Jo'rayev Murodulla.** *O'ZBEK KOMEDIYALARINING SUJET O 'ZIGA XOSLIKLARI*.....558
121. **Khaknazarova Luiza, Pirmatova Nasiba** *SPECIFIC FEATURES OF YOUTH SLANG IN THE LEXICAL-PHRASEOLOGICAL SYSTEM OF THE MODERN ENGLISH LANGUAGES*.....562
122. **Soatova Nodira.** *HAJVIY SHE'RLARDA HAYOT HAQIQATI*.....566
123. **Qo'shmurodova Sohiba, Soatova Nodira.** *HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYaida TALMEH SA'NATI*.....572
124. **Normurodov Kamol.** *CONNOTATAIONAL MEANING OF THE WORD AND ITS PRAGMATIC ANALYSIS IN MIND*.....577
125. **Hujumova Kamola.** *THE APPEARANCE OF UZBEK AND WORLD TRANSLATION SCHOOL*.....580
126. **Allayorova Shahnoza.** *INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ATOQLI OTLARNING KELIB CHIQISHI*.....586
127. **O`rinboyeva Sadoqat, Boymatova Dilnoza.** *SUBYEKTIV MODALLIK VA UNING BADIY MATNDA IFODALANISHI*.....593
128. **Мустафаева Гулмира, Бойматова Дилноза.** *МУРАККАБЛАШГАН СОДДА ГАПЛАРНИНГ ТИЛШУНОСЛИҚДА ЎРГАНИЛИШИ*.....596
129. **Bozorova Dilafza.** *INTERTEXTUALITY AS A MEANS OF TEXT DECODING*.....599
130. **Bozorova Dilafza.** *THE STRUCTURE OF SYNTACTIC STYLISTIC DEVICES IN LITERARY TEXTS*.....602
131. **Tulishova Gulzina Ravshanovna.** *OZOD SHARAFIDDINOV – YETUK ADABIYOTSHUNOS VA TARJIMON*.....604
132. **Хамидова. С.Б, Абдурасулова. М.О.** *ЗИДДИЯТНИ ИФОДАЛОВЧИ СТИЛИСТИК ВОСИТАЛАР ВА УЛАРНИНГ ФАРҚЛИ ЖИХАТЛАРИ*.....611

repertoire of any generation. It tells us something about the way people think and feel, and how they view the world around them" (Crystal, 2010). By studying and understanding youth slang, we can gain valuable insights into the attitudes, values, and experiences of young people in today's world.

#### REFERENCES:

1. Crystal, D. (2010). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
2. Crystal, D. (2008). Txtng: The gr8 db8. Oxford University Press.
3. Eckert, P. (2008). Variation and the indexical field.

#### HAJVIY SHE'RLARDA HAYOT HAQIQATI

*Soatova Nodira Isomitdinovna*

*JDPU professori v/b, f.f.doktori*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola XX asrning ko'zga koringan shoiri Shuhrat (G'ulom Aminov)ning lirikasidan o'rin olgan hajviy she'r va masallar tadqiqiga bag'ishlangan. Maqolada shoirning "Tulki va quyon", "Qurbaqa" masali hamda "Bo'ri edi, tulki bo'ldi", "Xira pashsha" kabi hajviy she'rlari tahlilga tortilgan. Natijada, muallifning masal va hajviy she'rlarida davrning ijtimoiy - siyosiy, ma'naviy - axloqiy masalalarini she'rlarida dadil aks ettirish orqali inson tabiatining zaif tomonlari, nuqsonlari, qusur-kamchiliklari, noto'g'ri xatti-harakatlarini aniq, o'tkir hajv yo'li bilan ochib berganganligi aniqlangan.*

**Tayanch so'zlar:** *Hajv, masal, poetik olam, allegorik obraz, lirik tasvir, g'oyaviy-estetik vazifa, adabiy-estetik qarash, didaktik mazmun, majoziy usul.*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена изучению шуточных стихотворений и притч из лирики Шухрата (Гуляма Аминова) – выдающегося поэта XX века. В статье анализируются такие комические стихотворения поэта, как «Лиса и заяц», «Лягушка» и «Был волк, была лиса», «Бледная муха». В результате басни и шуточные стихотворения автора смело отражают в его стихах общественно-политические, духовно-этические проблемы времени, ясно показывают слабости, пороки, пороки, неправильные поступки человеческой природы. раскрыл это через острый юмор*

**Ключевые слова:** сатира, притча, поэтический мир, аллегорический образ, лирический образ, идейно-эстетическая задача, литературно-эстетическое видение, дидактическое содержание, образный метод.

**Abstract:** This article is dedicated to the study of comic poems and parables from the lyrics of Shuhrat (Ghulam Aminov), a prominent poet of the 20th century. The article analyzes the poet's comic poems such as "The Fox and the Hare", "The Frog" and "There was a wolf, it was a fox", "The pale fly". As a result, the author's fables and comic poems, by boldly reflecting the social-political, spiritual-ethical issues of the time in his poems, clearly show the weaknesses, defects, flaws, and wrong actions of human nature. It was revealed that he revealed it through sharp humor.

**Key words:** satire, parable, poetic world, allegorical image, lyrical image, ideological-aesthetic task, literary-aesthetic vision, didactic content, figurative method.

Ijtimoiy hayot muammolarini, odamlar dardini, davr ruhini aks ettirishda masal va hajviy she'rlar nisbatan katta imkoniyatlarga ega. Bunday tipdagi she'rlarga Shuhrat nima uchun qo'l urdi, ijodkorning masal va hajviy she'r yaratishdan maqsadi nima bo'lgan? Ushbu maqolamizda shoir yaratgan masallar uning ijodida qanday ahamiyat kasb etadi?,- degan bir qator masalaga e'tiborimizni qaratamiz. Sinovli, hayot mashaqqatlariga to'la yillarni boshdan o'tkazgan ijodkor qalbidagi og'riqli iztirob-u alamlarni she'rlarining qat-qatiga sig'magan adolatga tashnalik va haqiqatparastlikdan bo'lsa kerak, tuyg'u - fikr - g'oya zanjiri ostida masal janri va hajvgga ham murojaat qilgan.

Shuhratning "Tulki va quyon" masalini mana shunday umri boqiy asarlar sirasiga kiritish mumkin. Masaldagi munofiqlikni o'ziga libos qilib olgan ayrim kimsalarning timsoli bo'lgan tulki holati yuqoridagi fikrimizni to'liq asoslaydi. O'zidan kuchsiz quyonni tutib olib, uni sabzi o'g'irlashda ayblagan tulki, shu bilangina qanoatlanmay, unga qattiq jazo berish kerakligini uqtirishini, shoir o'zining tabiiy sodda, ohangi xalqchil, ravon misralarida bayon etadi:

*Tulki tutib Quyonni shu on,*

*Atrofiga yig'di olomon.*

*Va dedi u: – Shu gazzob Quyon,*

*Qo'shni bog'da sahardan buyon,*

*Sabzi yeydi o'g'irlab hamon.*

*Nomus axir! Chidar qanday jon!*

*Mana uni tutib keltirdim,*

*Qattiq jazo berilsin derdim! [1;454]*

Shuhrat jamiyatda ildiz otib borayotgan ko‘zbo‘yamachilik, loqaydlik, munofiqlik, adolatsizlik kabi illatlarni keskin qoralash maqsadida bu illatlarni *tulki* misolida ko‘rsatib beradi. Shoirga ilohiy ilhom kelsa, u vaqt, joy tanlab o‘tirmaydi. Asar “ilhom bilan yozilsa, obrazlar o‘z-o‘zidan gavdalanadi, hatto o‘zining qiladigan ishini, aytadigan gapini yozuvchiga aytib, luqma solib turadi”[3;474-475]. Ilhomni ijodkorga hayotning o‘zi taqdim etadi. Zero, shoir tulkisimon odamlarni hayotida ko‘p ko‘rgan. Ularning o‘zlarining so‘zlari bilan aytganda “*adolat*” ostida qiladigan “*jirkanch, tuban*” ishlari necha-necha begunohlarni abgor qilayotgani, albatta shoirni iztirobga solgan, dilidan tiliga solib, ularni shu bois tulki timsolida yoritishga harakat qilgan.

*Tol shoxida o‘ynardi chittak,*

*Quloq solib turdi-da jittak,*

*Hayrat bilan Tulkiga boqib,*

*Nafratidan titrab, tutoqib,*

*Pastga uhib tushdi-da, shu on[1;454].*

Matnda tasvirlanishicha, ko‘rinishdan juda kichik bo‘lgan tol chetida o‘ynab o‘tirgan chittak qush tulkining qilayotgan razilona ishiga qarshi chiqishda o‘ziga kuch topa oladi va unga qarshi bosh ko‘taradi. Shoir chittak misolida insonni fikrlashga, hayotning mazmun-mohiyati haqida mushohada qilishga undaydi.

Chittakning o‘zini “*adolatpesha*” sanagan tulkiga qo‘rqmay aytgan so‘zlari kishini o‘yga toldiradi va xalqimiz yaratgan “*boyning o‘g‘li qilsa sho‘xlik, kambag‘alniki jinoyat*” qabilidagi naqlni yodga soladi. Shuningdek, “...Eng emotsional poeziya ham vazifa va mohiyat e‘tibori bilan siyosiy masaladir, she‘r – shoirning ijtimoiy vijdoni”[4;9], ekanligini she‘r xulosasidan anglab olish mumkin. Zero, bu masalning yozilishidan maqsad munofiqlikni o‘ziga to‘n qilib olgan insonlarga nisbatan shoirning qalbidan otilgan nafrat va alam hayqirig‘i deb tushunish lozim.

*Bu masalning mantiqi ayon:*

*Munofiqlik hammadan yomon! [1;454]*

Ma'lumki, badiiyatda "...inson kechinmalari – bu uning real hayotining sub'yektiv tomoni, shaxs umr yo'lining ob'yektiv aspektidir"[5;13]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, shoirning ruhiy olamida ro'y bergan o'zgarishlar, iztiroblar, tushkunlik yoki xushnudlik hollari uning ijodida turli kayfiyatdagi she'rlarning maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Shuhrat "*Tulki va quyon*" masalini yozishda mashhur rus masalchisi I.A.Krylov va o'zbek hajnavis shoir Gulxaniy masallaridan ilhomlanganligi sezilib turadi. Zero, Shuhrat masalini o'qiganimizda rus shoirining "*Bo'ri bilan tulki*" masali xotiraga keladi. Ammo bu hol Shuhratning bu va boshqa masallarining Krylov masallari tarzida yozilganini anglatmaydi. Shu hol Shuhrat masallarining original masallar deyishimizga to'la asos beradi.

Shuhratning "*Tulki va quyon*" masalidagi *tulki* obrazi, umuman, munofiqlik, vijdotsizlik, iymonsizlikning jonli timsoligina emas, shoir tulkidek munofiq kishilarni ko'p ko'rgan. Ularning biri shoir asarlaridan siyosiy xatolarni "topib", shoirni millatchilikda ayblab Moskvaga, "Pravda" gazetasiga 20 - 25 varaqli tuhmatnomasini yuborgan bo'lsa, ikkinchisi, bu xatning Yozuvchilar uyushmasidagi muhokamasida tuhmatchini qo'llab-quvvatlagan. Uchinchisi esa shoir siyosiy ayblar bilan qamoqqa olinganida tergovchiga shoirga qarshi ko'rsatma bergan. Shuhratning bu masalida real kishilarning munofiqligi *Tulki* obrazida mujassamlangan bo'lsa, boshqa masallarida ham shunday imonsiz kimsalar turli hayvonlar obrazida o'z abadiyatini topgan.

Endi, ma'no mantig'i jihatdan "*Tulki va quyon*" masaliga yaqin Krylovning "*Bo'ri bilan tulki*" masaliga murojaat qilsak, unda ham do'stlik, o'rtoqchilikka xiyonat qilgan, munofiq tulki obrazini uchratamiz. Krylov masalida tovuq go'shtini maza qilib yeb, ortganini yashirib, endi uxlashni niyat qilib turgan tulki oldiga qorni och bo'ri o'rtoq'i kelib ahvolining yomonligi, ochlikdan sillasi toza qurigani, itlardan quvg'in bo'lganini tulkiga shikoyat qiladi.

Ikkala shoir masalidagi tulki obrazi munofiqlik, vijdotsizlik, iymonsizlikda birbiridan qolishmaydi. Ijodkorlar tulkisimon kishilardan ehtiyot bo'lishni, ulardan uzoq bo'lishlikni, chunki bunday kimsalardan yaxshilik chiqmasligini uqtirishadi. Qat'iyat, sadoqat va fidoiylilik shaxsiyatiga ega Shuhrat, o'zligini unutgan, iymonsiz, qo'rqqoq, manfur kishilarga bo'lgan nafrati sifatida "*Qurbaqa*" masalini yaratgan. "*Qurbaqa*" masali ham mazmun-mohiyat jihatdan, shoirning yuqoridagi masalidan qolishmaydi.



Mushohadaga, obrazli tasvir vositalariga boy boʻlgan “*Qurbaqa*” masali shoirning ijodida yangi sahifa ochdi. Masalda badiiy tasvirning muhim vositalaridan biri portret qahramon ruhiyatini ochishda katta rol oʻynagan. Bir vaqtlar odam boʻlgan qurbaqa, koʻrinishdan “*Kelishgan, xushbichim, gap-soʻzga chechan., Suhbatda pahlavon, tanti, koʻngilchan*” ekanligi aytiladi. Bu uning tashqi qiyofasi tasviri. Lekin, dono xalqimizda shunday maqol bor “*usti yaltiroq, ichi qaltiroq*”. *Shoir qalamga olgan lirik qahramon esa xuddi shunday “usti yaltiroq, ichi qaltiroq”*lardan. Shu oʻrinda aytish joizki, “Badiiy asarda portretning vazifalari turlicha boʻladi. Biroq portretning eng muhim xarakteri, uning koʻproq psixologik portret boʻlishidadir”[7;27]. Psixologik portret shoirga qahramonning tashqi qiyofasi orqali uning ruhiy dunyosini ochishga yordam beradi. Podshoning qahriga duch kelgan koʻrinishdan eʼtiborga molik boʻlgan odamning ong-u tafakkurida katta bir burilish, tubanlik sari oʻzgarish hosil boʻlganini shoir uning oʻz soʻzlari orqali namoyon qiladi.

Shoirning bu masalni yozishdan maqsadi, bizningcha, “*It boʻlib hurishga roziman hatto, Qurbaqa boʻl desa, roziman, mayli*” degan misralarda oʻz ifodasini topgan. Shoir uchun eng ogʻir narsa oʻlim emas, balki millatning nazar-eʼtiboridan qolishdir. Kimgadir yoki kimlargadir yomonlik qilgan kimsa garchand podshoning qahr-gʻazabidan omon chiqqan boʻlsa ham, el-u yurt qargʻishiga qolib kelganki, bu uning uchun oʻlimdan ham dahshatli holdir. Shuhrat shu masalida shunday zotlarning razilligini *Qurbaqa* obrazida roʻy-rost koʻrsatgan. Shoir fikricha *qurbaqaga* aylangan insonlar Yaratganning jazosiga mahkumligini aytar ekan, ularning iflos hayoti boshqalar uchun ibrat boʻlmoqligi lozim, degan gʻoyani masalda uqtiradi, oʻquvchining har bir hujayrasiga singdirgandek boʻladi:

*Elu yurt qoʻrqoqdan yuz oʻgiribdi,  
Qoʻrqoqni tutibdi elning qargʻishi.  
Kechqurun odamdek yotgan bu kishi,  
Ertalab Qurbaqa boʻlib turibdi!  
Vaqillab yurarmish oʻshandan beri,  
Ochilib el aro qoʻrqoqlik siri! [1;442]*

Shuhrat ijodining boshqa ijodkorlar yaratqiqlaridan ajratib turadigan muhim xususiyat – xoh sheʼriyatda, xoh nasrda, xoh masallarida boʻlsin, qariyb barcha

asarlarida, xira pashsha, xoin, qurbaqa va tulkisimon kimsalarni fosh qiladi. Ulardan hazar qilib, chin insoniylik xislatlarni madh etadi. Shoir barcha janrdagi asarlarida o‘z qalbini jarohatlagan xoinlik va yomonlik, shuningdek, o‘zi uchun ideal hisoblangan sadoqat va yaxshilik mavzusiga qayta - qayta murojaat qiladi, shu bois bu mavzu uning asarlarida bosh mazmun va yetakchi leytmotivga aylangan.

Shuhrat lirik qahramoni orqali kitobxonni hayotda uchraydigan voqea-hodisalardan ruhan boyitadigan mazmun - ma’no topishga undaydi. She’r matni bilan tanishgan o‘qirman, hayotning murakkab xilqat ekanini, bu kurashdan iborat maydonda agar ma’naviyati sust bo‘lsa, har qanday zabardast polvon ham mag‘lub bo‘lish mumkinligini yaxshi anglaydi. Shoir *“Bo‘ri edi, tulki bo‘ldi”* degan hajviy she’rida haromxo‘r kishining yanada jirkanch qiyofaga kirishi mumkinligini tasvirlagan.

Shoir Alijon polvon obrazi timsolida, xudbin, pastkash, nafs balosi quli, hamma narsaga bir paytning o‘zida erishaman deb o‘ylagan ochko‘z, jirkanch kimsa qiyofasini yaratadi. Alijon polvon ma’nan qashshoq, o‘z nafi, hoyu-havasi yo‘lida hech qanday tubanlikdan qaytmaydigan, polvon nomiga munosib bo‘lmagan badkirdor, gumroh. Agar Alijon polvon, bizning zaminimizdan yetishib chiqqan ko‘plab allomalar, adib va shoirlarimizning asarlarini uqib o‘qib, mutolaa qilganda, o‘z hayot yo‘lini bunday sharmandalik ustiga qurmagan bo‘lar edi. Zero, birgina Ahmad Yassaviyning *“Hikmatlar”*ida nafsning yomon oqibatlariga olib kelishi haqida bir qancha ibratli fikrlari borki:

*Nafs yo‘lig‘a kirgan kishi rasvo bo‘lur,*

*Yo‘ldan ozib, toyib, to‘zib gumroh bo‘lu[8;102],–*

degan satrlarida nafsning – ichki dushman, dushman bo‘lganda ham juda katta dushmanligini, unga tobe bo‘lish, yengilish natijasida insondagi butunlik sinib, ma’naviy osoyishta hayoti barham topishi mumkinligini nazarda tutgan. She’r qahramoni Alijon polvon esa, Yassaviy ta’biri bilan aytganda, nafs quli, hayoti izdan chiqqan kimsadir. Inson zoti yaralibdiki, yaxshilik (ezgulik) bilan yonma-yon yomonlik (tubanlik) birga yashab keladi. Shoir Alijon polvon xarakteriga xos illatlarni she’rda ayovsiz fosh etar ekan, salbiy obraz butun bo‘y-basti bilan gavdalanadi. Har bir inson, avvalo, yaxshilik nima-yu, yomonlik nima farqiga borishi, o‘z ongi, aql-u farosati bilan anglab olishi kerak, yo‘qsa Alijon polvon holiga tushishi hech gap emas.

*Bora-bora ismi yoniga,  
Bo'ri so'zi qo'shib qoldi.  
Bu shum laqab tegib joniga,  
Hiyla qilish yo'lini oldi.  
Hiyla bilan bitmadi ishi,  
Hiyla bilan bo'lmadi polvon[1;451].*

Shoir Alijon polvon xarakterida uchrovchi illatlarni she'rda ayovsiz fosh etar ekan, haqqoniylik asar mazmunining yoki obraz mohiyatining salmoqdorligi, boshqacha aytganda, konseptualligi orqali belgilanishini tom ma'noda isbotlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Shuhrat mahorati shundaki, masal va hajviy she'rlarida kechinmalarini o'zi tanlagan so'zlar bilan ifodalay olgan. Davrning ijtimoiy - siyosiy, ma'naviy - axloqiy masalalarini she'rlarida dadil aks ettirish orqali inson tabiatining zaif tomonlari, nuqsonlari, qusur-kamchiliklari, noto'g'ri xatti-harakatlarini aniq, o'tkir hajv yo'li bilan ochib bergan. Shuhrat masal va hajviy she'rlaridagi ko'zga tashlanuvchi uslubiy o'ziga xosliklar, shoirda voqelikni tushunish, idrok etish, o'zlashtirish va baholash tamoyillari yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Shuhratning masal va hajviy she'rlari aql o'rgatmagani, pandu nasihat qilmagani holda tabiiy shavqi bilan tuyg'ularni tarbiyalaydi. Bu holat, hech ikkilanmay aytish mumkinki, didaktik tarbiyaning muhim vositasi sifatida bashariyatni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu bois shoirning masal va hajviy she'rlari XX asr adabiy maydonidagi ma'naviy ibрати bilan hozir ham o'z ahamiyatini to'la saqlab qolgan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):**

1. Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik, 1-jild. –T.: Adabiyot va san'at, 1978
2. Abdulla Q. Asarlar. 6 tom. –T.: O'zadabiy nashr, 1971.
3. Muxtor A. She'r - shoirning ijtimoiy vijdoni. / Parfi Rauf. Sabr daraxti. –T.: Adabiyot va san'at, 1986.
4. Рубинштейн С. Основы общей психологии. – Питер, 2000.
5. <https://ertak.uz/masal/359>.
6. Yassaviy A. Hikmatlar. Nashrga tayyorlovchi I.Haqqul. –T.:Adabiyot va san'at, 1990.

7. Navoiy A. Mahbub ul - qulub. –T.: Adabiyot va san’at,1983.

8. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Ma’naviyat, 2000.

## **HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE’RIYaida TALMEH SA’NATI**

*Qo’shmurodova Sohiba, JDPU magistranti  
Ilmiy rahbar: N.Sotova JDPU professori, f.f.doktori*

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqola XXI asr o‘zbek she’riyatining yetuk vakilasi, O‘zbekiston Xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyevaning lirikasi, xususan shoira she’rlarida qo‘llanilgan talmeh she’riy san’at haqida. Maqolada shoiraning talmeh san’ati mohirona foydalanganligi ochib berilgan.*

**KALIT SO‘ZLAR:** *Badiiy ifoda vositasi, she’riy san’at, lafziy san’at, ma’naviy san’at, obraz*

**АННОТАЦИЯ:** *Данная статья посвящена лирике Халимы Худойбердиевой, зрелой представительницы узбекской поэзии XXI века, народной поэтессы Узбекистана, особенностям поэтического искусства талмеха, использованного в стихах поэтессы. В статье раскрывается, что поэт умело использовал искусство тальме.*

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** *Средства художественной выразительности, поэтическое искусство, словесное искусство, духовное искусство, образ.*

**ANNOTATION:** *This article is about the lyrics of Halima Khudoyberdiyeva, a mature representative of Uzbek poetry of the 21st century, the People's Poet of Uzbekistan, especially the talmeh poetic art used in the poet's poems. The article reveals that the poet skillfully used the art of talmeh*

**KEY WORDS:** *Means of artistic expression, poetic art, verbal art, spiritual art, image*

*“Halima o‘zbek ayol she’riyatida kutilmagan hodisa, ungacha bu san’at koshonasida qandaydir sukunat, osudalik hukm surib, kishini mudroq bosardi. Halima bu dargohga bo‘ron bo‘lib, suron bo‘lib kirib keldi-da, to‘liqib, oshiqib, toshiqib baland pardalarda qo‘shiq boshladi”.*

**To‘xtasin Jalolov.**